



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)
2023





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(3) 2023

Jurnal haqida

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.



"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Daminov Mirzohid Islomovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Raximov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati.....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari...	11
To'liq RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'naviy tafakkurini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi	29
У.И. МУПТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosabat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	82
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi.....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishlash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishlash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni.....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi	115
Mavjuda NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiy o'yinlar texnologiyasi	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	125

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.// <https://daryo.uz/2017/06/15/shavkat-mirziyoyevning-ijtimoiy-barqarorlikni-taminlash-muqaddas-dinimizning-sofligini-asrash-davr-talabi-mavzusidagi-anjumanda-sozlagan-nutqi/>
2. Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari. -Toshkent, 2004. -196 b.
3. Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. -Toshkent: Fan, 2008. -104 b.
4. Usmonxo'jayev T. S., Xo'jayev F. 1001 o'yin. Toshkent, "Meditsina", 1990.
5. «Alpomish» xalq o'yinlari va milliy sport turlarini rivojlantirish muammolari» ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Farg'ona, 2000.
6. www.ziynet.uz
7. www.edu.uz
8. www.buxdu.uz
9. www.arxiv.uz
10. www.aim.uz

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTERLI TA'LIMYI O'YINLAR TEXNOLOGIYASI

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy va amaliy asoslari ba'ён qilingan. Multimedia texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar o'tkazishning samarali usullari va kompyuterli mashg'ulotlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: multimedia, modem, gadjet, Internet, Power Point, Macromedia Flash.

В данной статье описаны научно-практические основы использования мультимедийных технологий в образовательном процессе групп дошкольного образования. Представлены эффективные методы обучения на основе мультимедийных технологий и примеры компьютерного обучения.

Ключевые слова: мультимедиа, модем, гаджет, интернет, Power Point, Macromedia Flash

This article describes the scientific and practical foundations for the use of multimedia technologies in the educational process of preschool education groups. Effective teaching methods based on multimedia technologies and examples of computer learning are presented.

Keywords: multimedia, modem, gadget, internet, Power Point, Macromedia Flash

Kirish. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish dolzarb masala sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayoni qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, tarbiyalanuvchi bolalar, shunchalik ta'limning keyingi turlarida qiynalmasdan muvaffaqiyat qozona olishlariga imkoniyat yaratiladi. Bolaning onggi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi", - deb ta'kidlanadi.

Ushbu fikrlar maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham taalluqlidir. Chunki MTTlarning o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida 5-7 yoshli bolalar tarbiyalanadilar. Bolalarning intellektual salohiyatlarini shakllantirishning boshlang'ich davri ham huddi ana shu yoshdan boshlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga Davlat talablari va maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ham, "eksperimental maktabgacha tashkilotlar asosida yangi pedagogik

texnologiyalar aprobatsiyasini o'tkazish va ularni ommaviy amaliyotga tatbiq etish", "Yangi texnik vositalardan foydalanish"larga e'tibor qaratilgan.

Ushbu talablarni qisman amalga oshirish maqsadida MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish uchun samarali multimedia texnologiyasi ishlab chiqildi. MTTlarda multimedia texnologiyasining tub mazmuni-multimediali kompyuter ta'limni amalga oshirishdan iborat.

MTTlarda ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi an'anaviy uslublarga nisbatan malum bir afzalliklarga ega. Jumladan:

- bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi;
- bola bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi);
- an'anaviy usulga nisbatan bolalarga o'rgatiladigan materiallarning hajmi ortadi;
- mashg'ulotlarning samaradorligi oshadi;
- MTT bolalarining kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga yordam beradi;
- didaktik materiallarni animatsiyalar orqali ko'rsatish imkoniyati mavjud;
- turli xil jangarilik, qo'poruvchi o'yinlar o'rniga ta'limiy-rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish mumkin.

MTTlarda multimedia texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, bu xususiyatlarni o'rganish texnologiyalarni joriy etish jarayonida bolalarning yoshlarini hisobga olish va didaktik materiallarni ularga mos tanlash,

120 ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kompyuterli mashg'ulotlar an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan qiziqarli o'tadi, hatto faol bo'lmagan tarbiyalanuvchilar ham kompyuterli mashg'ulotlarga faol qatnashadilar. Masalan, MTTdagi faol bo'lmagan tarbiyalanuvchilar kompyuter ekranidagi o'rganiladigan o'yinni kuzatib, ta'lim materiali bo'yicha savol bera boshladilar. Bu esa, faol bo'lmagan tarbiyalanuvchilarning o'rganiladigan material (o'yin) to'g'risida fikr yuritayotganliklarini va qiziqayotganliklarini bildiradi.

MTT larda Internetdan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud: 1. Internetda bo'lgan ba'zi bir taqdimotlar va slaydlardan foydalanish mumkin. Masalan, geometrik shakllar bo'yicha elementar matematik tasavvurni shakllantirishga oid multimediali taqdimot keltirilgan.

Ushbu taqdimot, MTTlarning maktabga tayyorlov guruhiga tegishli elementar bilim va ko'nikmalar bo'limining "doira, kvadrat, uchburchak, shar, kublarni farqlaydi, nomlaydi va ularning xususiyatlarini biladi" mavzusiga tegishlidir.

2. Internetdagi materiallardan foydalanish uchun oldin tarbiyachini o'zi tayyorgarlik ko'rishi kerak, jumladan, Internet sahifalaridan materialni qidirib topish va materialni kompyuter xotirasiga saqlash.

3. MTT pedagoglari va tarbiyachilari o'z sohalari bo'yicha teleanjumanlarda qatnashishlari mumkin. Buning uchun, ish faoliyatlaridagi yangiliklar yoki tajribalari bo'yicha maqola tayyorlab teleanjuman saytiga joylashtiriladi va uni teleanjuman ishtirokchilari bilan birga muhokama etiladi.

4. MTT tarbiyalanuvchilarini ta'lim-tarbiya bo'yicha saviyalarini oshirish maqsadida Internet orqali boshqa shaharlardagi yoki shu hududdagi MTT tarbiyalanuvchilari o'rtasida ma'lum bir shaklda musobaqalar tashkil etish imkoniyati mavjud.

5. Hozirgi davrda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida foydalanish uchun qator elektron darsliklar va qo'llanmalar yaratilgan. Shunday elektron ko'rinishidagi adabiyotlarni MTT tarbiyalanuvchilari uchun ham tayyorlab Internetga joylashtirish mumkin va ulardan ko'pchilik MTTlarning tarbiyachilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

6. Shuningdek, MTTlarning tajribali pedagog-tarbiyachilari o'zlari yaratgan sifatli slayd va taqdimotlarni Internetga joylashtirsalar, boshqa MTT pedagog-tarbiyachilarining ish faoliyatlari

uchun foydali bo'lar edi.

Multimedia texnologiyasi. MTTlarda multimedia texnologiyasining ta'lim sohasidagi asosiy va yetakchi tashkiliy shakli – kompyuterli mashg'ulotdir. Ushbu texnologiya bo'yicha mashg'ulotlar 30 daqiqa davomida, kompyuterlardan foydalanib olib borilgani uchun, o'rtada 15 daqiqadan so'ng 5-10 daqiqali o'rganiladigan materialga tegishli o'yin mashg'uloti yoki suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Shundan keyin, yana mashg'ulotning 15 daqiqasi davom ettiriladi.

MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga kompyuterlardan foydalanishning afzallik tomonlaridan biri shundan iboratki, bolalar kompyuterda ishlashni to'la o'rganib olganlaridan keyin, undan 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda materiallarni o'rganishlari mumkin. Kompyuterning "bag'ri keng" va "toqatli, sabrlidir". Bola xato qilgan taqdirda ham, xatoni o'zi tuzatgunga qadar, hech kim unga tanbeh bermaydi. Multimedia texnologiyasida ta'lim va tarbiyani mashg'ulot shaklidan tashqari, o'yin shaklida (kompyuterli o'yinlar), ekskursiya, sayohat, amaliy mashg'ulot shaklida (ekologik ta'lim), masofali muloqot shaklida olib borish mumkin.

Ta'lim manbalari. Bolalar uchun "qo'llanma" yoki "darslik" sifatida – kompyuter xotirasiga yuklangan ma'lumotlar, tarbiyachi uchun esa, multimedia texnologiyasiga oid pedagogik, ilmiy-uslubiy adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalar ta'lim manbalari hisoblanadi.

Texnik vositalari (didaktik asoslari). Hozirgi kunda turli xil multimedia ta'lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqish va ularni tatbiq etish jadal rivojlanayapti. Lekin hana hana ulardan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uslubiyoti ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, MTT tarbiyachi-pedagoglari multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar, hatto ayrim maqolalarda shunday qarashlar e'zilmogda. Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus tashkilotdan tashqari, har bir MTT lar sharoitida tarbiyachilarning o'zlari tomonidan tayyorlay oladigan: dasturli va rolli(ijroli) multimedia vositalaridan(DVD-disk) foydalanish ham mumkin.

DVD video diski – multimedia vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la ko'rish mumkin, ba'zi hollarda alohida elementlari ko'riladi, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi Multimedia texnologiyasining texnik

vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

Multimedia texnologiyasining ta'lim-tarbiya berish uslubiётini baён qilishdan oldin, uning quyidagi ikki jihatiga e'tibor berish kerak:

1. Agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilm bo'lib qoladi.

2. Agar tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida, uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta'lim jarayonini aks ettirib multimedia texnologiyasiga aylanadi.

Multimedia texnologiyasidan foydalaniladigan jaraёnda esa, ta'lim jarayonining markazida kompyuter xotirasiga yuklangan va o'rganish uchun mo'ljallangan ta'lim materiallari turadi. Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida ta'kidlanganidek, kompyuter xotirasiga yuklangan material o'ziga xos "ta'lim qo'llanmasi" yoki "darsligi" rolini o'ynaydi. Ikkinchi o'rinda, kompyuterdagi ta'lim materiallarini ko'rib va tovushni eshitib turgan ta'lim oluvchi (tarbiyalanuvchi)lar turadilar. Bu holda asosiy muloqot kompyuter-tarbiyalanuvchi o'rtasida amalga oshirilib, tarbiyalanuvchi axborotni kompyuter ekranidan qabul qilib oladi. Ammo MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga multimedia texnologiyasi tatbiq etilgan taqdirda ham garchi ma'lumot monitor ekranidagi materialdan olinsa-da, tarbiyachi-pedagogning faoliyati birinchi o'rinda qolaveradi, chunki an'anaviy usul bilan ta'lim berishda "bo'r-doska"dan yoki boshqa turli xil ko'rgazmali vositalardan foydalanilsa, multimedia texnologiyasida esa, kompyuter ekranidagi materiallardan foydalaniladi.

Multimediali axborot texnologiyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida, MTT lar uchun multimedia texnologiyasini shakllantirish amalga oshiriladi. Demak, multimedia texnologiyasida

ta'lim jarayoni quyidagicha kechadi: kompyuterga o'rganiladigan materialni yuklanishi, namoyish etish, kuzatiladigan va o'rganiladigan material bo'yicha tarbiyachi-tarbiyalanuvchi o'rtalarida muloqat va materialni o'rganilgan darajasini aniqlash. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, multimedia texnologiyasida ma'lumot garchi kompyuterdan olinsa-da, natija tarbiyachining mahorati va qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Multimedia texnologiyasida tarbiyalanuvchilarga elementar bilim berish quyidagilar asosida olib boriladi:

1. Monitor ekranida ko'rsatiladigan multimediali tasvirlar va ko'rgazmalar orqali.

2. Bolalarning hayotda, turmushda, uйда, tevarak-atrofda mavjud predmetlar va obyektlardan foydalanish orqali.

3. Tarbiyalanuvchilarga elementar matematik tasavvurlar berishda, u yoki bu materialni o'rgatishda analogiya(taqqoslash) usulidan ham foydalanishni tavsiya etiladi. Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'sirchanligi katta bo'lib, undan MTT ta'lim-tarbiya jaraёnida foydalanish bolalarning diqqatlarini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega.

Multimedia bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olishning samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon sinovdan o'tgan. Masalan, xalqimizda bu to'g'rida "yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rmoq yaxshi" degan maqoli bor. Psixologlar ham bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim berishda o'zlashtirish yuqori bo'lishini ta'kidlab kelmoqdalar.

Quyida 5 soni ichida qo'shish va ayirish amallarini o'rganishga bag'ishlangan va birinchi mashg'ulotda foydalanishga mo'ljallangan ikkita multimediali lavhani keltiramiz.

I.



II.



122

Ushbu taqdimotlarda archalarga animatsiya samaralar berish orqali ranglar jilolanib turadi, tarbiyachi-pedagog qo'shish va ayirish amalini tushuntirib, materialni sharhlab boradi. Raqamlarning monitor ekranidagi ko'rinishi o'zgarib turadi, ya'ni multimediali samara hosil qilinadi.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: monitor ekraniga archalarni chiqarib, Alibekdan nimalarni ko'rayotganini so'raydi.

Alibek: Bir qator archalarni ko'rayapman, deydi

Tarbiyachi: Yuqori qatorda nechta archa bor?

Alibek: Sanaydi, bir, ikki, uch, to'rt, besh, oltita.

Tarbiyachi: Alibek ayt-chi, bitta archaga ikkita archa qo'shilsa, jami nechta archa hosil bo'ladi.

Alibek: Sanab uchta, deydi.

Tarbiyachi: Rasmda bu qanday ifodalangan?

Alibek: Birinchi archadan keyin + ishorasi, keyin ikkita archa, so'ngra = tenglik belgisi, tenglik belgisidan keyin uchta archa joylashgan.

Tarbiyachi: Sonlarni qo'shishni buyumlar bilan ham ifoda etish mumkin.

Archalar ostidagi raqamlar nimani bildiradi?

Alibek: Bitta archaga ikkita archani qo'shganda hosil bo'lgan yig'indini bildiradi, ya'ni (1+2=3)

Tarbiyachi: Jahongir ayt-chi, pastki qatorda nechta archa bor?

Jahongir: Sanaydi. Bir, ikki, uch,...,o'nta .

Tarbiyachi: Jahongir, ayt-chi oying senga besh dona konfet bersa, undan ikkitasini ukangga bersang, o'zingda nechta qoladi?

Jahongir: o'zimda uch dona konfet qoladi.

Tarbiyachi: ekranda ko'rinib turgan archalarning beshtasidan ikkitasini qo'shniga berilsa, o'zingda nechta archa qoladi?

Jahongir: o'zimda uchta archa qoladi.

Tarbiyachi: shu aytganlarning pastki qatorda qanday ifodalangan.

Jahongir: Beshta archadan keyin ayirish belgisi (-), undan keyin ikkita archa, so'ngra tenglik belgisi (=), oxirida yana uchta archa joylashtirilgan.

Tarbiyachi: aytganlarning sonlar bilan qanday belgilangan?

Jahongir: ekranda 5-2=3 ni ko'rsatadi.

Shundan so'ng, tarbiyachi javob berishda qatnashgan bolalarni baholab, boshqa tarbiyalanuvchilar bilan ham savol-javobni o'tkazadi.

Mashg'ulotning asosiy 15 daqiqali bosqichidan so'ng, dam olish bosqichi (5-daqiqali oraliq bosqich) boshlanadi.

Bu bosqichda (5 daqiqali oraliq bosqichda) tarbiyachi bolalar dam olishlari uchun "o'rin almashtirish" o'yinini o'tkazadi (1,2,3,4,5 raqamlar va +, -, = belgilar qog'ozda tayyorlanib, qistirgich yordamida tarbiyalanuvchilarning ko'kraklariga taqiladi va ularni bir qatorga tizib, 3 soni hosil qilinadi hamda archa to'g'risidagi she'rlar aytiladi).

Yangi yil oqshomida,

Yaltiraydi archamiz.

Archamizni bezashda,

Qatnashganmiz barchamiz.

G'ani ildi bitta shar,

Nodir esa ikkita shar.

Qani aytin, bolalar,

Nechta bo'ldi jami shar.

She'r aytib bo'lingach, tarbiyachi Nigoradan jami shar nechta bo'lganini so'raydi . Shundan keyin, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlarini sinash uchun quyidagi sxema bo'yicha "O'rinni to'ldir" o'yinini o'tkazadi.

$$\boxed{1} + \boxed{} = \boxed{3}$$

$$\boxed{} - \boxed{2} = \boxed{3}$$

Devorda yuqoridagi kabi ikki qatorda oltita katakcha joylashtiriladi.

Vazifa: bolalarga stol ustidagi raqamlardan foydalanib, bo'sh katakchalarni to'ldirish vazifasi topshiriladi.

Mashg'ulotni ikkinchi o'n besh daqiqali bosqichi: tarbiyalanuvchilar tomonidan kompyuter va kalkulyaturlarda bajariladigan mashqlar.

Tarbiyachi: endi bolalar kompyuterda ikki

sonni qo'shish amalini bajarib ko'ramiz.

Tarbiyachi: qani Bahrombek, aytchi ikki sonni ikki soniga qo'shilganda kanday son hosil bo'ladi?

Bahrombek: to'rt soni hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: endi shu amalni kompyuterda bajarib ko'rsat. Buning uchun, klaviaturadagi qaysi raqamlar va belgilarning tugmachalarini bosishing kerak?

Bahrombek: oldin 2 raqamli tugmachani

bosaman va (bu amalni bajaradi), natija ekranda 2 soni paydo bo'ladi.

Tarbiyachi: endi nima qilishing kerak?

Bahrombek: qo'shish ishorasiga mos tugmachani bosishim kerak, deb topshiriqni bajaradi. Ekranda 2 + yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi : endi qaysi raqamli tugmachani bosishing kerak?

Bahrombek: yana 2 raqamli tugmachani bosaman va (bu topshiriqni ham bajaradi) ekranda 2+2 yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: endi qanday belgili tugmachani bosishing kerak?

Bahrombek: tenglik belgisini, ya'ni (=) deb, topshiriqni bajaradi. Ekranda 2+2= yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: Bahrombek, endi ikki sonini ikki soniga qo'shishga bitta misol keltir.

Bahrombek: ikkita olmaga ikkita olma qo'shilsa, to'rtta olma bo'ladi.

Tarbiyachi: barakalla! Endi amalni bajar.

Bahrombek: klaviaturadagi 4 raqami tugmachasini bosadi. Natijada ekranda 2+2=4 kabi ifoda paydo bo'ladi.

Tarbiyachi Bahrombekni bajargan ishlarini baholaydi va yana bir nechta tarbiyalanuvchilarga ushbu amalni mustaqil bajartiradi. Shundan keyin, 5 gacha bo'lgan sonlar ichidan tanlab, sonlarni bir-birlaridan ayirish amalini kompyuterda bajarishga o'tiladi.

Tarbiyachi: endi bolalar kompyuterda sonlarni bir-birlaridan ayirish amaliga o'tamiz deb Aminani kompyuter oldiga taklif etadi.

Tarbiyachi: Amina, qani ayt-chi oying bergan to'rtta konfetdan ikkitasini ukangga bersang, o'zingda nechta konfet qoladi?

Amina: ikkitasini ukamga bersam, o'zimda ham ikkita konfet qoladi.

Tarbiyachi: endi shuni kompyuterda bajarib ko'rsat. Buning uchun, dastavval klaviaturadagi qaysi raqamli tugmachani bosishing kerak?

Amina: to'rt raqamli tugmachani bosishim kerak.

Tarbiyachi: bajarib ko'rsat.

Amina: klaviaturadagi 4 raqamli tugmachani bosadi, monitor ekranda 4 soni hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: endi qaysi belgiga mos tugmachani bosishing kerak?

Amina: ayirish belgisi tugmachasini bosishim kerak deydi va bajaradi, ekranda 4 - yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: navbatda qaysi raqamga mos tugmachani bosishing kerak?

Amina: ikki raqamli tugmachani deb, uni topadi va tugmachani bosadi. Ekranda 4-2 yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: topshiriqni bajarish uchun endi

qaysi belgi tugmachasini bosishing kerak.

Amina: tenglik (=) ishorasini deb, uni klaviaturadan topib bosadi. Ekranda 4 - 2 = yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: qani ayt-chi natijada qanday son hosil bo'lishi kerak?

Amina: to'rtta konfetdan ikkitasini ukasiga berganini eslab, ikki soni deydi va amalni bajaradi. Ekranda 4-2 =2 yozuv hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: endi Amina bajargan amalingni og'zaki aytib ber.

Amina: to'rt sonidan ikki soni ayrilsa, natijada ikki soni hosil bo'ladi.

Tarbiyachi: Amina qani ayt-chi, ayirish amali bajarganda, ayirma ko'paydimi yoki kamaydimi.

Amina: kamayadi, deb javob beradi.

Barakalla! Javobing to'g'ri.

Shundan keyin tarbiyachi, Aminaning bajargan ishini baholaydi va Aminaning bajargan ishini kuzatib turgan boshqa tarbiyalanuvchilardan bir nechtasini yuqoridagi amalni mustaqil bajarishga undaydi.

Shunday qilib, MTT tarbiyalanuvchilariga elementar matematik bilim berish jarayonida informatika va axborot texnologiyalarining vositasi bo'lgan kompyuterlardan foydalanilganda, maktabgacha ta'lim tashkilot bolalarining faolliklari va qiziqishlari shakllanadi, mashg'ulot samaradorligi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan ancha ortadi.

Muhokama va natijalar. Pedagogika nuqtai nazaridan, multimedia texnologiyasining MTTlardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i – ularga kompyuterlar asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun, multimedia texnologiyasini o'ziga xos belgilari, xususiyatlari va tamoyillari mavjud: Asosiy belgilari - texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va ekrandagi materiallardan foydalanib bilim olishdan iborat. Multimedia texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi.

Masalan, dialogli ta'lim texnologiyasida kompyuter - texnik vosita sifatida qaraladi, multimediali kompyuter texnologiyasida esa, u ko'rgazmali vositadan tashqari "Ta'lim manbai" sifatida mujassamlanadi, ya'ni o'rganiladigan material oldindan kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'ladi. Ushbu material tarbiyachining an'anaviy uslub bilan mashg'ulot o'tkazish bo'yicha tuzgan ishlanmasiga o'xshaydi.

MTT tarbiyalanuvchilari kompyuter monitori ekranida namoyish etiladigan materiallaridan